

YEVROPA ITTIFOQI MAMLAKATLARIDA KICHIK TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH BOZOR INFRATUZILMASI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING UMUMIY XUSUSIYATLARI TAHLILI

Dilafiruz Narziyeva

Buxoro davlat universiteti

Iqtisodiyot kafedrasida Katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20605156>

Annotasiya: Maqolada Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida shakllangan kichik tadbirkorlikni rivojlantirishning bozor infratuzilmasi samaradorligini oshirish mintaqaviy modeli xususiyatlari tahlil qilinib, undan O'zbekiston sharoitida ijodiy foydalanish yo'nalishlari aniqlangan.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, kichik tadbirkorlik, kichik tadbirkorlik salohiyati, faol tadbirkorlik, bozor infratuzilmasi, kichik tadbirkorlik faoliyati, tadbirkorlik muhiti

РЕГИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЕВРОПЕЙСКОГО СОЮЗА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ РЫНОЧНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ ДЛЯ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА

Аннотация: В статье анализируются особенности региональной модели повышения эффективности рыночной инфраструктуры для развития малого бизнеса, сформированной в странах Европейского союза, и определяются области ее творческого применения в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: предпринимательство, малый бизнес, потенциал малого бизнеса, действующий бизнес, рыночная инфраструктура, деятельность малого бизнеса, деловая среда

EUROPEAN UNION REGIONAL CHARACTERISTICS OF IMPROVING THE EFFICIENCY OF MARKET INFRASTRUCTURE FOR THE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESSES

Abstract: The article analyzes the features of the regional model of increasing the efficiency of market infrastructure for the development of small businesses, formed in the countries of the European Union, and identifies areas for its creative use in the conditions of Uzbekistan.

Keywords: entrepreneurship, small business, small business potential, active business, market infrastructure, small business activities, business environment

Kichik tadbirkorlikni rivojlantirishning bozor infratuzilmasi samaradorligini ta'minlashda Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida shakllangan Yevropa modeli hududlararo mutanosiblikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, O'zbekiston viloyatlari o'rtasidagi rivojlanish va samaradorlik holatlari o'rtasidagi keskin tafovutlarning mavjudligi ushbu modelning mamlakatimiz amaliyoti uchun ham ilmiy ham amaliy jihatdan ahamiyatli ekanligini

asoslanishiga xizmat qiladi. Ushbu vaziyatni inobatga olgan holatda, Yevropa Komissiyasi¹, Yevropa kichik va oʻrta biznes ittifoqi (SME United in Europe)², Yevropa biznes (Business Europe)³ tashkiloti, Yevropa palatasi (Euro Chambers)⁴ kabi xalqaro ahamiyat kasb etuvchi Yevropa Ittifoqining mintaqaviy tashkilotlari tomonidan kichik tadbirkorlikni rivojlanishi va uning bozor infratuzilmasi samaradorligini taʼminlanish holati boʻyicha umumiy mintaqaviy xususiyatlarni tahlil qilishga qaratilgan tadqiqotlari natijalarini tizimli tahlil qilish asosida Yel mamlakatlari uchun xos boʻlgan xususiyatlar boʻyicha quyidagi umumiy xulosalarni shakllantirishga erishdik:

Yel mamlakatlarida kichik tadbirkorlikni rivojlantirishning bozor infratuzilmasi samaradorligini taʼminlanishida koʻp bosqichli institutsional boshqaruv, raqamli integratsiya va innovatsion rivojlanish tamoyillariga ustuvorlik qaratilib, umumiy holatda kichik va oʻrta shakldagi tadbirkorlik subʼektlari uchun dasturlarning ishlab chiqilishi bilan birgalikda, yagona bozor infratuzilmasi xizmatlari koʻrsatilishi bilan ajralib turadi. Mintaqaviy model amal qilishida kichik tadbirkorlikni rivojlantirish davlatning toʻgʻridan-toʻgʻri aralashuviga emas, balki biznes muhitini institutsional jihatdan takomillashtirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish va transchegaraviy iqtisodiy integratsiyani taʼminlashga qaratilgan hisoblanadi;

Yel mamlakatlarida kichik tadbirkorlikni rivojlantirishning bozor infratuzilmasi samaradorligini taʼminlash boʻyicha shakllangan model amal qilishida kichik va oʻrta biznesni qoʻllab-quvvatlash moliyaviy institutlar, raqamli platformalar, innovatsiya markazlari, maslahat tarmoqlari va huquqiy muhitning oʻzaro chuqur integratsiyalashuvi yaqqol namoyon boʻlib, model amal qilishining markaziy elementi sifatida kichik va oʻrta tadbirkorlik subʼektlari (SME) atrofida bilim, moliya, raqamli transformatsiya, eksport va innovatsiya elementlarining aylanma tarzda oʻzaro bogʻlangan tizim sifatida amal qiladi;

mintaqaviy modelda raqamli transformatsiyalashuvi bozor infratuzilmasi samaradorligini oshirishning ustuvor mexanizmi sifatida qaralib, Raqamli Yevropa (Digital Europe Programme) mintaqaviy dasturi, raqamlashtirilgan innovatsion markazlar (European Digital Innovation Hubs – EDIH), onlayn platformalar va elektron xizmatlar orqali bozor infratuzilmasining raqamlashtirilishi kichik va oʻrta tadbirkorlikni rivojlantirishning bozor infratuzilmasi samaradorligini oshirilishida chuqur integratsiyalashgan tartibda namoyon boʻladi.

AQSh amaliyotida boʻlgani singari Yel mamlakatlarida shakllangan modelda ham kichik va oʻrta tadbirkorlikni rivojlantirishda koʻp darajali moliyalashtirish mexanizmidan foydalanilib, bunda COSME, InvestEU, Horizon Europe, mikromoliyalashtirish va grant dasturlariga ustuvorlik qaratilib, bu turdagi bozor infratuzilmasining moliyaviy yoʻnalishidagi infratuzilmaviy taʼminot samaradorligini oshirilishi kichik va oʻrta tadbirkorlik subʼektlari faoliyatini investitsiyalash bilan bogʻliq boʻlgan xavf-xatarlarni minimallashtirilishiga xizmat qiladi.

¹ Schuzle Brock P., Di Bella L., Katsinis A., Laguera Gonzalez J. SME Performance Review 2026: Methodological note on Nowcasting and Forecasting. European Commission, Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2026. – 42 pages.

² The SME Business Climate Index and EU Craft and SME Barometer: Spring 2026. SME United in Europe, 2026. – 21 pages.

³ From Ambition to Delivery: An Urgent Call for Action 2026. Business Europe, Feb., 2026. – 23 pages.

⁴ Eurochambres Economic Survey 2026. Eurochambres, 2026. – 25 pages.

YeI mamlakatlarida shakllangan modelda haam AQShda bo'lgani singari kichik va o'rta tadbirkorlik faoliyatining yashovchanligini oshirishda Enterprise Europe Network (EEN), SME Helpdesk va innovatsiya markazlarining o'zaro integratsiyalashuviga asoslangan mexanizm orqali tadbirkorlarga huquqiy, moliyaviy, marketing va eksport masalalari bo'yicha kompleks yordam ko'rsatish amaliyoti yo'lga qo'yilganligi bilan ajralib turadi.

Umumiy holatda YeI mamlakatlarida kichik tadbirkorlikni rivojlantirishning bozor infratuzilmasi samaradorligini oshirish borasida shakllangan mintaqaviy model xususiyatlarini tahlil qilish orqali quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirishga erishdik:

Horizon Europe dasturi mintaqaviy model amal qilishida kichik tadbirkorlikni innovatsion rivojlanishida innovatsiya markazlari va universitetlar bilan hamkorlik tizimining shakllantirilishi hisobiga kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirishning bozor infratuzilmasi samaradorligini bilimga asoslangan iqtisodiyot tamoyillari bilan integratsiyalashuvini kuchaytirib, yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan global darajadagi yuqori raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishini rag'batlantirilishiga xizmat qiladi;

modelning yana bir o'ziga xosligi mintaqaviy darajada, jumladan,, har bir mamlakatlar kesimida kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlanishi va ularning bozor infratuzilmasi samaradorligi holatini muntazam monitoring qilish tizimi shakllantirilgan bo'lib, bunda mahalliy ekspertlar KPI, monitoring va turli integral baholash tizimlari orqali erishilgan samaradorlik holati va mavjud muammolar bo'yicha muntazam ravishda hisobotlarni taaqdim etib boradilar. Bu esa kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirishning bozor infratuzilmasi samaradorligini ta'minlaash borasida amalga oshirilayotgan dasturlar hisobiga erishilgn natijalar holatiga aniq baho berish bilan birgalikda, rivojlanish va samaradorlikni oshirishning ustuvorliklarni aniq belgilab olinishig xizmat ko'rsatadi.

Umuman olganda, YeI modeli davlat yordamining hajmiga emas, balki tadbirkorlik sub'ektlarining biznes foyiylatlari uchun qulay ekotizim yaratish, xizmatlarni raqamlashtirish va transchegaraviy bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Shu nuqtai nazardan mazkur model O'zbekistonda kichik tadbirkorlikni rivojlantirishning bozor infratuzilmasi samaradorligini oshirish uchun muhim institutsional namuna sifatida xizmat qilishi mumkin bo'ladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Schuzle Brock P., Di Bella L., Katsinis A., Laguera Gonzalez J. SME Performance Review 2026: Methodological note on Nowcasting and Forecasting. European Comission, Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2026. – 42 pages.
2. The SME Business Climate Index and EU Craft and SME Barometer: Spring 2026. SME United in Europe, 2026. – 21 pages.
3. From Ambition to Delivery: An Urgent Call for Action 2026. Business Europe, Feb., 2026. – 23 pages.
4. Eurochambres Economic Survey 2026. Eurochambres, 2026. – 25 pages.